

UDK 330.14

Buxoro davlat universiteti

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası

i.f.f.d., dotsent.,

**D.B. O'roqova**

d.b.o'roqova @buxdu.uz

## MINTAQAVIY TURIZMNI INNOVATSION RIVOJLANISHI VA KLASTERLARINI BOSHQARISH MEXANIZMI

**Annotasiya.** *Innovatsion faoliyatni boshqarish va uning turizm sohasiga ta'siri haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu maqolalar turizmni rivojlantirishda innovatsiyalarni qo'llashning turli aspektlarini ko'rib chiqadi. Masalan, turistik xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqishda innovatsion yondashuvlar, turizmning barqarorligini ta'minlash va turistik klasterlarning roli alohida urg'u berilgan. Shuningdek, turizmning iqtisodiy jihatlari, investitsion jozibadorligini oshirish va innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish uchun strategik yondashuvlar ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Bu maqolalarda innovatsion faoliyatning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini oshirish, hududiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun zarur bo'lgan yondashuvlar taqdim etiladi. Turizmni rivojlantirishda innovatsiyalarni qo'llash nafaqat yangi xizmatlar yaratish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va investitsiya jalb qilishning samarali vositasi sifatida qaraladi.*

**Kalit so'lar:** *Innovatsiya, turizm, turistik klister, raqobatbardoshlik, investitsiya, barqarorlik, texnologiya.*

**Abstract.** *Many studies have been conducted on the management of innovation activities and their impact on the tourism industry. The articles consider various aspects of the application of innovations in tourism development. For example, special attention is paid to innovative approaches to the development of tourism services and products, ensuring the sustainability of tourism, the role of tourism clusters. It is also important to develop strategic approaches to the economic aspects of tourism, increase its investment attractiveness and effectively manage innovation processes. The articles present approaches necessary to increase the economic and social effect of innovation activities, strengthen regional development and competitiveness. The use of innovations in tourism development is considered an effective means of not only creating new services, but also ensuring economic stability and attracting investment.*

**Key words:** *Innovation, tourism, tourism cluster, competitiveness, investment, sustainability, technology.*

### **Kirish.**

Hozirgi kunda turizm iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Turistik biznesni innovatsion rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Hududiy turizmni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, raqamli xizmatlar va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada hududlarda turistik biznesni innovatsion rivojlanishining tashkiliy va metodologik asoslari tahlil qilinadi hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi. Hududlarda turistik biznesning innovatsion rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega. Turizm infratuzilmasini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va klaster modelini tatbiq etish orqali bu sohaning samaradorligi oshiriladi. Ushbu yondashuv hududlarning iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va milliy turizm raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish va turistik biznesni innovatsion rivojlantirish axborot texnologiyalari, raqamli marketing va ilg'or boshqaruv usullarini qo'llashni o'z ichiga oladi. Zamonaviy mehmonxona va restoran xizmatlarini avtomatlashtirish, virtual turizm xizmatlarini rivojlantirish, onlayn platforma tizimlarini takomillashtirish turizmning innovatsion rivojlanish

yoʻnalishlaridan biridir. Shuningdek, ekologik turizm, aqlli turizm va barqaror turizm konsepsiyalari hududiy turizm siyosatining ajralmas qismiga aylangan.

Klaster yondashuvi turistik xizmatlar zanjirining samaradorligini oshirish, biznes va davlat hamkorligini kuchaytirish hamda hududiy turizmni kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Turistik klasterlar mehmonxona, restoran, transport, madaniy meros obyektlari, dam olish maskanlari va boshqa xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlarni oʻzaro integratsiya qiladi. Bu esa mintaqadagi turistik xizmatlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirishga imkon yaratadi.

Turistik klasterlarni shakllantirish bir necha bosqichlardan iborat. Dastlab, hududning turistik salohiyati tahlil qilinadi va turistik resurslarning mavjudligi aniqlanadi. Keyinchalik, mahalliy biznes va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik oʻrnatilib, turistik infratuzilmani rivojlantirish boʻyicha investitsion dasturlar ishlab chiqiladi. Shundan soʻng, raqobatbardosh strategiyalar va innovatsion texnologiyalar asosida klasterlarning rivojlanish modeli shakllantiriladi. Hududiy turizmni rivojlantirishda davlat tomonidan tartibga solish, biznesni qoʻllab-quvvatlash, xalqaro tajribani oʻrganish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, klaster yondashuvi asosida turizm resurslarini muvofiqlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish barqaror turizm tizimini shakllantirishga yordam beradi.

#### **Adabiyotlar tahlili.**

Hududiy turistik biznesning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashiga xizmat qiladi. Turizm orqali ish oʻrinlarini yaratish, xizmat koʻrsatish sifati va infratuzilmani yaxshilash imkoniyati mavjud. Hududlarda turistik biznesni innovatsion rivojlantirish va klaster yondashuvi boʻyicha ilmiy tadqiqotlar turizm sohasining samarali rivojlanishi uchun muhim nazariy va metodologik asoslarni taklif etadi. MDH davlatlari olimlari tomonidan turistik biznesning rivojlanishi toʻgʻrisida fikrlar bildirishgan ushbu olimlar

A.E. Abrameshin va boshqalar tomonidan yozilgan "Инновационный менеджмент" asari turistik biznesda innovatsion yondashuvlarning dolzarbligini taʼkidlaydi<sup>1</sup>. Mualliflar innovatsiyalarni boshqarishning nazariy asoslari va ularning amaliy tatbiqlari boʻyicha tavsiyalar beradi. T.T. Avdeeva va M.R. Kurozova tomonidan oʻrganilgan turistik klasterlarni boshqarish mexanizmlari mahalliy hududlar uchun aniq strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi<sup>2</sup>. Ularning tadqiqoti, ayniqsa, Krasnodar oʻlkasi misolida turizm klasterlarini rivojlantirish boʻyicha tavsiyalar beradi. A.Yu. Aleksandrova turistik klasterlarning mazmuni, chegaralari va ishlash mexanizmlarini oʻrganadi. Uning fikricha, turistik klasterlarni shakllantirishning muhim jihati ularning chegaralarini toʻgʻri belgilash va ular oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashdir<sup>3</sup>. O.A. Bakumenko oʻz asarlarida regional turistik klasterlarning samaradorligini baholash va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish boʻyicha uslubiy tavsiyalar beradi<sup>4</sup>. U klaster modelini joriy qilish orqali turistik hududlarning iqtisodiy oʻsishini tezlashtirish mumkinligini taʼkidlaydi. Y. Barzykin turizm sohasida kichik va oʻrta biznesning rolini oʻrganib, har bir turistni kichik investor sifatida qarash konsepsiyasini ilgari suradi<sup>5</sup>. Unga koʻra, turistik sohada investitsiyalarni jalb qilishning samarali yoʻllaridan biri innovatsion infratuzilmani rivojlantirishdir. Y.M. Belozérova turistik xizmatlarning sifati oshirish uchun innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi zarurligini taʼkidlaydi<sup>6</sup>. Uning tadqiqotlari turizm xizmatlarining zamonaviy standartlarga muvofiqligini oshirishga yoʻnaltirilgan. S.V. Valeeva xalqaro va Rossiya turizm bozorida innovatsion

<sup>1</sup> Abrameshin A.E. Инновационный менеджмент / Под ред. А. Е. Абрамешина. — М.: «Экономика», 2014. — 312 с.

<sup>2</sup> Авдеева Т.Т., Курозова М.Р. Механизмы управления туристическими кластерами: региональный аспект // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. — 2017. — №183. — С. 28-35.

<sup>3</sup> Александрова А.Ю. Туристские кластеры: сущность, структура и механизмы функционирования // Вестник МГУ. Серия 5, География. — 2015. — №3. — С. 53-60.

<sup>4</sup> Бакуменко О.А. Региональные туристские кластеры: оценка эффективности и инновационные подходы. — СПб.: Лань, 2019. — 256 с.

<sup>5</sup> Барзыкин Е. Стратегические направления развития туристской отрасли России: роль малого бизнеса // Туризм: право и экономика. — 2019. — №4. — С. 12-19

<sup>6</sup> Белозёрова Е.М. Современные стандарты качества туристических услуг: инновационный аспект // Сервис плюс. — 2020. — №2. — С. 55-63.

tendensiyalarni tahlil qiladi<sup>1</sup>. Uning fikricha, turizm sohasining uzluksiz rivojlanishi uchun mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan holda global strategiyalarni joriy etish muhimdir. I.N. Vetrov va V.Yu. Lapshin innovatsion boshqaruv mexanizmlarining turistik sohada barqaror rivojlanish va xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyatini o'rgangan<sup>2</sup>.

Umuman olganda, turizm sohasida innovatsion rivojlanish va klaster tizimlarini joriy qilish turistik biznesning barqaror va samarali rivojlanishiga yordam beradi. Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm sohasi innovatsiyalarni qo'llash orqali raqobatbardoshligini oshirishi, investitsion muhitni yaxshilashi va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishi mumkin.

**Metodologiya.**

Hududlarda turistik biznesni innovatsion rivojlantirish uchun aniq metodologik yondashuvlar zarur. Quyidagi metodlar samarali natijalar berishi mumkin O'zbekistondagi turistik klasterlarning SWOT-tahlili quyidagi raqamli ko'rsatkichlar asosida berilishi mumkin(1-jadval). Bu SWOT-tahlil O'zbekistonda turistik klasterlarning holatini yaxshiroq anglash va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion rivojlanish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi kuchaytirilishi, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish zarur.

**1-jadval.**

**SWOT-tahlil O'zbekistonda turistik klasterlarning holati**

<b>Kuchli tomonlari (S – Strengths)</b>	<b>Zaif tomonlari (W – Weaknesses)</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Boy tarixiy va madaniy meros, ya'ni O'zbekistonda 7 ta UNESCO Jahon madaniy merosi obyektlari mavjud (Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz). Ushbu yodgorliklar xalqaro turizmga muhim rol o'ynaydi;</li> <li>- Geografik joylashuvning qulayligi, ya'ni O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, 5 ta qo'shni davlat (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston) bilan quruqlik orqali bog'langan. Bu esa mintaqaviy turizmni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi;</li> <li>- Turistik infratuzilmaning rivojlanishi, ya'ni mamlakat bo'ylab 1 500 dan ortiq mehmonxona, 500+ turistik agentlik faoliyat yuritadi. Yangi mehmonxonalar, zamonaviy transport tizimi, dam olish maskanlari va sayyohlik markazlari qurilishi turistik xizmatlarni yaxshilashga yordam bermoqda;</li> <li>- Raqamli transformatsiya jarayoni, ya'ni turizm xizmatlarini avtomatlashtirish rivojlanib bormoqda: 70% turistik xizmatlar onlayn bron qilish tizimiga ega, mehmonxona rezervatsiya tizimlari rivojlangan. Elektron viza tizimi orqali ko'plab davlatlar uchun soddalashtirilgan kirish imkoniyati yaratilgan;</li> <li>- Xalqaro hamkorlik va qo'llab-quvvatlash, ya'ni O'zbekiston Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) a'zosi bo'lib, xalqaro forumlar va ko'rgazmalarda faol qatnashadi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Turistik xizmatlarning diversifikatsiya qilinmaganligi, turizmning 70% dan ortig'i tarixiy-madaniy yo'nalishga qaratilgan. Ekoturizm, gastronomik turizm, tibbiy turizm va agro-turizm kabi yo'nalishlar yetarlicha rivojlanmagan;</li> <li>- Ichki transport va logistik muammolar, ya'ni viloyatlararo transport tarmog'i cheklangan: xalqaro aeroportlar soni kam, yuqori tezlikda harakatlanuvchi temir yo'l va avtomobil yo'llarining rivojlanishi talab darajasida emas;</li> <li>- Turistik kadrlar yetishmovchiligi, ya'ni turizm sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi sezilmoqda. Soha bo'yicha mutaxassislarining atigi 30% dan ortig'i xalqaro talabga mos tajribaga ega. Mehmonxona biznesi, gidlar, transport xizmatlari va xizmat ko'rsatish sohaslarida malaka oshirish zarurati mavjud;</li> <li>- Marketing va reklamaning yetishmovchiligi, ya'ni O'zbekistonning turistik brendi xalqaro maydonda yetarlicha targ'ib qilinmagan. "Silk Road Destination" yoki "Made in Uzbekistan" brendlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.</li> </ul>
<b>Imkoniyatlar (O – Opportunities)</b>	<b>Tahdidlar (T – Threats)</b>

<sup>1</sup> Валеева С.В. Инновационные тенденции мирового и российского рынка туризма // Управление экономическими системами. — 2017. — №10. — С. 33-41.

<sup>2</sup> Ветров И.Н., Лапшин В.Ю. Управление туристским комплексом на основе инновационных подходов. — М.: Инфра-М, 2020. — 208 с.

<p>- Ekoturizm va gastronomik turizmni rivojlantirish, ya'ni O'zbekistonda 20+ tabiiy qo'riqxonalar va milliy bog'lar mavjud bo'lib, ekoturizm, tog' turizmi va tabiatga asoslangan sayohatlar uchun katta imkoniyat mavjud. An'anaviy o'zbek oshxonasi orqali gastronomik turizmni rivojlantirish istiqbollari yuqori;</p> <p>- Xalqaro investitsiyalar va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, ya'ni So'nggi 5 yilda turizm sohasiga 3 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb qilingan. Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali turizm infratuzilmasi modernizatsiya qilinmoqda;</p> <p>- Raqamli va aqlli turizmni rivojlantirish, ya'ni 50 dan ortiq muzey va turistik obyektlarda AR/VR texnologiyalari joriy etilmoqda. Sun'iy intellekt va Big Data orqali turistlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va ularning ehtiyojlariga mos xizmatlar ko'rsatish imkoniyati mavjud;</p> <p>- Halal turizm va sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish, ya'ni musulmon mamlakatlari orasida Halal turizm segmentini rivojlantirish orqali O'zbekistonni Halal destinatsiya sifatida targ'ib qilish mumkin. Sog'lomlashtirish va tibbiy turizm orqali xorijiy bemorlarni jalb qilish istiqbollari mavjud;</p> <p>- Transchegaraviy turizm va mintaqaviy hamkorlik, ya'ni Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan "Ipak yo'li" turistik marshrutlarini birlashtirish orqali umumiy turpaketlarni taklif qilish imkoniyati mavjud.</p>	<p>- Hududiy va global iqtisodiy beqarorlik, 2022-yilda turistik oqim 15% ga kamaygan. Jahon iqtisodiyotidagi inqirozlar, pandemiya yoki geosiyosiy mojarolar turistik oqimga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;</p> <p>- Ekologik muammolar va resurslarning kamayishi, ya'ni iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning qisqarishi turizm infratuzilmasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Orolbo'yi hududida ekologik muammolar sababli sayyohlarni jalb qilish qiyinlashmoqda;</p> <p>- Geosiyosiy muammolar, ya'ni xalqaro reyslarga cheklovlar joriy etilishi, qo'shni davlatlar bilan chegaradagi transport infratuzilmasining rivojlanmaganligi xalqaro turizm oqimini sekinlashtirishi mumkin;</p> <p>- Soliq va bojxona to'lovlarining yuqoriligi, ya'ni turistik biznes uchun soliq stavkalari va bojxona rasmiylashtirish jarayonlari xalqaro standartlarga moslashtirilishi zarur;</p> <p>- Turistik xavfsizlik va pandemiya xavfi, ya'ni xalqaro turistlar uchun xavfsizlik masalalarining dolzarbligi va pandemiya sababli sog'liqni saqlash cheklovlari turizm sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.</p>
--	---

1-jadvaldagi ma'lumotlar turizm sohasi natijalarni SWOT tahlili asosida ko'rsatadiki, O'zbekiston turizmida boy tarixiy va madaniy meros, qulay geografik joylashuvi va rivojlangan infratuzilma kabi kuchli jihatlari mavjud. Xususan, UNESCO tashkilot tomonidan obyektlarni va zamonaviy raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi orqali turistik raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu bilan birga, zaif tomonlar sifatida turizm xizmatlarining yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganligi, ichki transport imkoniyatlari va narx strategiyalarning qo'llanilish jihatlari, targ'iboti pastligini

Imkoniyatlar sifatida ekoturizm va gastronomik turizmni rivojlantirish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va raqamli texnologiyalarga asoslangan aqlli turizmni kengaytirish istiqbollari mavjud. **Prezident tomonidan o'tkazilgan yig'ilishda O'zbekistonga 2025-yilning ilk oyida 3 mlrd dollar xorijiy investitsiya kelgani ma'lum qilindi. Fevralda ham shuncha sarmoya jalb qilish, 623 ta loyihani ishga tushirish ko'zda tutilgan.** Ta'kidlanishicha, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 32 ta yo'nalishda yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Mahalla bankirlari bilan birga 1,5 million aholi doimiy ishga joylashtirilib, 2 milliondan ziyod odam biznesga jalb qilinadi. Shu maqsadda bu yil kichik biznes loyihalariga jami 120 trillion so'm kredit ajratiladi. Turizm salohiyati bor joylarda mehmon uylari va oshxonalar, muayyan pochta bo'limlarida elektron tijorat markazlari ochilib, kambag'al oila vakillari ishga olinadi.

Turizm sohasida innovatsion faoliyat yangi mahsulot yaratish yoki mavjud mahsulotni almashtirish, transport, mehmonxona va boshqa xizmatlarni takomillashtirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, yetakchi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni va tashkiliy-boshqaruv faoliyatning zamonaviy shakllarini joriy etishga yo'naltirilgan. Bizning mamlakatimizda keying

yillarda turizm sohasidagi innovatsion yangilanish yo'llariga oid ilmiy maqolalarga bag'ishlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" [strategiyasining](#) Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishida turistik klasterlarni tashkil etish tartibini hamda ularning huquqiy maqomini belgilashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqildi<sup>1</sup>.

Bunga ko'ra Turistik klasterlarni tashkil etish va ularga turistik klaster maqomini berish tartibi to'g'risidagi nizam [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlandi<sup>2</sup>.

Biroq, global iqtisodiy beqarorlik, ekologik muammolar va geosiyosiy tahdidlar turizm rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, 2022-yilda turistik oqimning 15 % ga kamayishi ushbu xatarlarning real ta'sirini namoyon qiladi. Shu sababli, innovatsion yondashuvlarni kengaytirish va barqaror turizm strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

**2-jadval.**

**Buxoro hududidagi turistik klasterlarning benchmarking tahlili.**

T/r	MCHJ nomi	Agroturizm loyihalarida band bo'lgan aholi soni	Hududdagi qishloq xo'jaligi ekin maydonlari hajmi (ga)	Tabiiy resurslar (suv, yer sifatleri) ning mavjudligi va holati	Ekologik tozaligi: atmosfera, tuproq holati (kuchli yoki past ifloslanish)	Agroturizm bo'yicha investitsiyalar hajmi	Davlat tomonidan ajratilgan subsidiya va imtiyozlar hajmi	Agroturizmni qo'llab-quvvatlovchi dastur va loyihalar soni
1	"Agro trade"	200	32	Gidraponika usulida suv sifati yaxshi	Toza, ifloslanish past	20 mln \$ kredit, 7 mln \$ o'z mablag'lari	Berilgan	Saralash, qadoqlash, eksport qilish, lagistik markaz qurmoqchi
2	"Buxoro Varnet"	75	5	Gidraponika usulida suv sifati yaxshi	Toza, ifloslanish past	120 million dollardan ziyod kredit	Berilgan	10 million dollar tashqi investitsiya o'zlashtirilib, 13 gektar maydonda issiqxona qurib bitkazildi, 260 dan ortiq ish o'rni yaratildi.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-7303189>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-7303189>

3	“Qorovulb ozor Nurobod”	70	11	Gidrapon ika usulida suv sifati yaxshi	Toza, ifloslanish past	2 \$ mln o'z mablag'lari	Berilgan	
4	“Siyovush Kamron Food”	70	40	Mavjud, holati yaxshi	Mavjud, holati yaxshi	O'z mablag'lari	Berilgan	
5	“Farg'ona bog'I”	10	3,2	Mavjud, holati yaxshi	Mavjud, holati yaxshi	O'z mablag'lari	Berilgan	

Keltirilgan ma'lumotlarni 2-jadvalda Hududning turli turistik klasterlari bo'yicha 2024-yilga oid statistik ma'lumotlar taqdim etilgan. Ushbu ma'lumotlarning manbasi muallif tomonidan savolnoma so'rovi yuzasidan agroturistik klasteri bo'yicha ko'rsatkichlari haqida ma'lumot asosida shakllangan. Benchmarking nafaqat taqqoslash uchun ma'lumot to'plash va xattiharakatlarning standard bo'lishi mumkin bo'lgan eng yaxshi turistik klasterlarni tanlash usuliga emas, balki turistik klasterlarning o'zida korporativ madaniyatni rivojlantirishga, shuningdek, eng yaxshi ish uslublarini idrok etishga hissa qo'shishga, shuningdek, turistik klasterlar faoliyatining eng yaxshi usullarini chegaralarni kesib o'tishga ko'proq e'tibor qaratishga kirishdi.

Benchmarking natijalari shuni ko'rsatadiki, klasterlarning innovatsion rivojlanishi uchun transport, mehmonxona tarmog'i va raqamli xizmatlarni kengaytirish zarur. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va xizmatlar diversifikatsiyasiga e'tibor qaratish turistik klasterlarning barqaror o'sishini ta'minlaydi

O'tgan 2024 yil davomida ko'hna shaharga 1 million 745 ming 200 nafardan ziyod xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, ularga ko'rsatiladigan xizmatlar orqali turizm eksporti 436,3 million AQSH dollariga yetkazilgan. Shu bilan birga, respublika hududlaridan Buxoroga 4 milliondan ziyod mahalliy aholi sayohat maqsadida tashrif buyurgan<sup>1</sup>.

### **O'zbekistonning turistik klasterlarida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi**

Raqamli texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili turizm industriyasida strategik ahamiyat kasb etib, sayyohlik xizmatlarini takomillashtirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. AQShning Gartner kompaniyasi tomonidan taklif etilgan tasnifga muvofiq, Big Data ma'lumotlarini<sup>2</sup> turizm klasterlari doirasida quyidagi asosiy kategoriyalarga ajratish mumkin:

Operatsion ma'lumotlar – turizm xizmatlari va infratuzilmasi doirasida tranzaksiya jarayonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlar hisoblanadi. Bunga mehmonxona va transport tizimlaridagi bronlash operatsiyalari, to'lov tranzaksiyalari, sayyohlarning harakat yo'nalishlari, yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar va boshqa operatsion jarayonlar kiradi. Ushbu ma'lumotlar real vaqt rejimida monitoring qilinib, turistik oqimni boshqarish va xizmatlarni yaxshilashda qo'llaniladi.

“Qorong'i” ma'lumotlar – turistik tashkilotlar tomonidan ataylab yoki tizimli ravishda yig'ilmagan, biroq turistik faoliyat jarayonida shakllangan va mavjud bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu guruhga ijtimoiy tarmoqlardagi sayyohlarning sharhlari, onlayn forumlardagi muhokamalar, elektron pochta orqali olingan fikr-mulohazalar hamda GPS sensorlar yordamida aniqlangan harakat trayektoriyalari kiradi. Ushbu ma'lumotlar chuqur tahlil qilinishi orqali mijozlarning xatti-harakatlari va turistik xizmatlarga bo'lgan talab prognoz qilinishi mumkin.

<sup>1</sup> [https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-buxoroga-6-millionga-yaqin-xorizhiy-va-mahalliy-sayyoh-tashrif-buyurgan\\_684111](https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-buxoroga-6-millionga-yaqin-xorizhiy-va-mahalliy-sayyoh-tashrif-buyurgan_684111)

<sup>2</sup> Hoffmann A. (2018). Making data valuable: political, economic, and conceptual bases of Big Data. *Philosophy & Technology*. No. 31. Pp. 209–212. Springer.

Tijorat ma'lumotlari – turizm sanoatida tijorat maqsadlarida shakllangan hamda professional tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan axborot manbalarini o'z ichiga oladi. Masalan, xalqaro va milliy turizm tashkilotlarining statistik ma'lumotlari, mehmonxona bron qilish platformalarining mijoz tahlillari, marketing tadqiqotlari va mijozlarning sayohat afzalliklari bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar ushbu toifaga kiradi.

Rasmiy ma'lumotlar – davlat organlari tomonidan e'lon qilingan turizm statistikasi, transport va infratuzilma rejalari, viza rejimlari, xavfsizlik choralariga oid hujjatlar, shuningdek, turizmni rivojlantirishga qaratilgan rasmiy strategiyalar va qonun hujjatlari. Ushbu turdagi ma'lumotlar tahlil qilinib, turizm klasterlari uchun strategik rejalashtirish jarayonlarida foydalaniladi.

Ijtimoiy tarmoqlar va xizmatlar ma'lumotlari – sayyohlarning turistik xizmatlarga munosabati, ular tomonidan bildirilgan fikrlar, sharhlar, izohlar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar turistik brendlarni shakllantirish, mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash va raqobatbardosh strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Turizm klasterlarida Big Data tahlilining asosiy usullari

Tavsiflovchi tahlil (Descriptive Analytics) – turistik klasterlarning hozirgi holatini aks ettiruvchi statistik va vizual tahlillarni o'z ichiga oladi. Bu usul turistik oqim, mehmonxonalaridagi bandlik darajasi, sayyohlarning asosiy tashrif yo'nalishlari kabi ma'lumotlarni tahlil qilish va ularning muntazam o'zgarishlarini kuzatish imkonini beradi.

Bashoratli tahlil (Predictive Analytics) – tarixiy ma'lumotlarga asoslanib, kelajakdagi turistik tendensiyalarni prognoz qilish uchun qo'llaniladi. Masalan, sayyohlar oqimining mavsumiy o'zgarishlari, muayyan sayyohlik yo'nalishlariga bo'lgan talabning oshishi yoki pasayishi hamda bron qilish tendensiyalarining oldindan bashorat qilinishi ushbu usul yordamida amalga oshiriladi.

Retseptiv tahlil (Prescriptive Analytics) – turistik xizmatlarning samaradorligini oshirish uchun eng maqbul qarorlarni aniqlashga qaratilgan. Bu usul orqali turizm klasterlarida transport tizimining yaxshilanishi, xizmat ko'rsatish standartlarining oshirilishi va mijozlarga yo'naltirilgan innovatsion yechimlar ishlab chiqilishi mumkin.

Tashxisli tahlil (Diagnostic Analytics) – turistik xizmatlar sifati va mijozlarning xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan. Masalan, sayyohlar oqimidagi keskin pasayish sabablarini aniqlash, sayohat marshrutlarining mashhurligi yoki sayyohlik obyektlariga bo'lgan qiziqishning kamayishi kabi holatlar tahlil qilinadi.

Ushbu Big Data tahlil usullari turizm klasterlarida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni samarali joriy etishga imkon yaratib, turizmni rivojlantirish strategiyasini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Global miqyosdagi raqamli transformatsiya jarayonining ajralmas qismi sifatida sodir bo'layotgan texnologik o'zgarishlar turistik klasterlarning faoliyati va marketing tadqiqotlarini olib borish usullariga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli innovatsiyalar, xususan, katta ma'lumotlar texnologiyalari, turistik kompaniyalarga bozor tendensiyalarini aniq prognoz qilish, mijozlar ehtiyojlarini chuqurroq tushunish va marketing strategiyalarini yanada samarali shakllantirish imkonini bermoqda.

Dunyo doimiy o'zgarishda davom etmoqda, bu esa mavjud marketing yondashuvlari va biznes modellarining tez eskirishiga olib kelmoqda. Natijada, turistik klasterlar an'anaviy sanoat chegaralaridan chiqib, yangi raqamli yechimlarni joriy etishga majbur bo'lmoqda. Katta ma'lumotlarni tahlil qilish orqali sayyohlarning xatti-harakatlari, afzalliklari va bozor talablarini aniqlash mumkin, bu esa marketing tadqiqotlarining aniqligini oshirish va xizmatlarni individuallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu jarayon davomida ilgari ustunlik deb hisoblangan marketing strategiyalari o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin, ammo Big Data tahlili asosida ilgari e'tibor qaratilmagan butunlay yangi bozor segmentlari va xizmat yo'nalishlari aniqlanadi. Bu esa turistik klasterlarga innovatsion xizmatlarni yaratish, mijozlar bilan yanada samarali o'zaro aloqa o'rnatish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Turistik agroklasterni rivojlantirish bo'yicha muhim, aniq chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- Texnologiyalarni transfer qilish, rekonstruksiya qilish, asbob-uskunalarni sotib olish va yangi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun uzoq muddatli kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, barcha savdo muzokaralarida manfaatlarni ta'minlash, yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatish va amaliy tayyorlash uchun oliy va o'rta ta'lim muassasalarida o'quv bazasini yaratish, shuningdek, turistik agroklasterni rivojlantirish bo'yicha ishlar olib borish.

- Kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlashda mahalliy davlat hokimiyati organlarining mas'uliyati, roli va ahamiyatini kuchaytirish, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, manfaatdor hamkorlarni jalb etish, moliyaviy resurslarni birlashtirish, mahalliy infratuzilma (yo'llar, kommunikatsiyalar, biznes-inkubatorlar, ta'lim muassasalari) asoslarini yaratish, qo'llab-quvvatlash tizimini tashkil etish, yirik biznes bilan hamkorlikni rivojlantirish va kichik biznes sub'yektlarini hududlar bo'ylab kengaytirish hamda turistik agroklasterni rivojlantirish va integratsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

- O'zbekiston Respublikasining innovatsion va texnologik salohiyatini qishloq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ehtiyojlariga mos ravishda qayta yo'naltirish, shuningdek, turistik agroklasterni rivojlantirish va bu sohadagi imkoniyatlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratish.

- Turistik agroklasterni rivojlantirish maqsadida, kichik sanoat korxonolari (shu jumladan innovatsion korxonalar) uchun soliq yukini yanada kamaytirish va qo'shimcha imtiyozlar yaratish.

- Turistik agroklasterni rivojlantirish maqsadida, xomashyo, energiya resurslari yetkazib beruvchi hamda iqtisodiyotning ushbu tarmog'iga xizmatlar ko'rsatuvchi tabiiy monopoliya subyektlari va monopoliya korxonolari mahsulotlari narxlarining o'sishini cheklash va bu jarayonni boshqarish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abrameshin A.E. Инновационный менеджмент / Под ред. А. Е. Абрамешина. — М.: «Экономика», 2014. — 312 с.
2. Авдеева Т.Т., Курозова М.Р. Механизмы управления туристическими кластерами: региональный аспект // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. — 2017. — №183. — С. 28-35.
3. Александрова А.Ю. Туристские кластеры: сущность, структура и механизмы функционирования // Вестник МГУ. Серия 5, География. — 2015. — №3. — С. 53-60.
4. Бакуменко О.А. Региональные туристские кластеры: оценка эффективности и инновационные подходы. — СПб.: Лань, 2019. — 256 с.
5. Барзыкин Е. Стратегические направления развития туристской отрасли России: роль малого бизнеса // Туризм: право и экономика. — 2019. — №4. — С. 12-19.
6. Белозёрова Е.М. Современные стандарты качества туристических услуг: инновационный аспект // Сервис плюс. — 2020. — №2. — С. 55-63.
7. Валеева С.В. Инновационные тенденции мирового и российского рынка туризма // Управление экономическими системами. — 2017. — №10. — С. 33-41.
8. Ветров И.Н., Лапшин В.Ю. Управление туристским комплексом на основе инновационных подходов. — М.: Инфра-М, 2020. — 208 с.
9. <https://lex.uz/ru/docs/-7303189>



10. <https://lex.uz/ru/docs/-7303189>
11. [https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-buxoroga-6-millionga-yaqin-xorizhiy-va-mahalliy-sayyoh-tashrif-buyurgan\\_684111](https://uza.uz/uz/posts/2024-yilda-buxoroga-6-millionga-yaqin-xorizhiy-va-mahalliy-sayyoh-tashrif-buyurgan_684111)
12. Hoffmann A. (2018). Making data valuable: political, economic, and conceptual bases of Big Data. *Philosophy & Technology*. No. 31. Pp. 209–212. Springer.
13. Анваров Нодир Аллаёрович О‘zbekistonda aqlli agroturizmni tashkil etishning asosiy xususiyatlari ya s h i l i q t i s o d i y o t v a t a r a q q i y o t 2023-yil, dekabr. Maxsus
14. Урокова, Д., & Акрамова, Н. (2023). SCRUM: ГИБКИЙ ПОДХОД К УПРАВЛЕНИЮ ПРОЕКТАМИ СФЕРА ТУРИЗМА. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1)
15. Bahriddinovna, U. D. (2021, November). Development of the Service Sector: A Comparative Analysis of National and Foreign Practices. In " *ONLINE-CONFERENCES*" *PLATFORM* (pp. 222-228).
16. Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., & Matkarimov, F. (2024). The dynamics of tourism, economic growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan: an ARDL approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 14(6), 365-370.
17. Baxriddinovna, O. D. (2023). TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNING MOHIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 16(2), 158-163.
18. Урокова, Д. Б., & Толипов, М. У. У. (2020). Факторы, влияющие на развитие туризма в Узбекистане. *Достижения науки и образования*, (3 (57)), 21-23.
19. Fatilloevna, R. G., & Bahriddinovna, U. D. (2021). THE ECONOMIC IMPORTANCE OF NATIONAL CRAFTS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM. *Academy*, (1 (64)), 52-54.
20. Baxriddinovna, O. D. Mintaqaviy turizmning iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri (O‘zbekiston turistik xizmatlar bozori misolida) . “Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz> 2024-yil 30-apreld 45-50 bet
21. Baxriddinovna, O. D. Monografiya “Xizmatlar ko’rsatish sohasini innovatsion usulda rivojlantirish imkoniyatlari (O‘zbekiston turistik xizmatlar ko’rsatish sohasi misolida)” Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2023-2024 o‘quv yilidagi 8-son yig‘ilish bayonnomasida 2024-yil 29-mart № 3/
22. Baxriddinovna, O. D. TURIZMNI RIVOJLANISH MUAMMOLARI YECHIMINING ILMIY NAZARIYASI INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL SCIENCE SHINE Issue XXI 15. 07. 2024.